

Jahon Tajribasida Xorijiy Investitsiyalar – Iqtisodiyotni Rivojlantirishning Asosi Sifatidagi Roli

Sh.Umirzaqova Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

J. Jurayev Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali Biznesni boshqarish ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

O. N. Xaitov Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali assistenti

Anotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro moliya bozori o'zaro bog'langan global bozor sifatida jahon iqtisodiyoti rivojlanish tendensiyalarini o'zida aks ettiradi. Jahondagi yirik moliya bozorlarida xalqaro kapital harakati ta'minlanadi, iqtisodiyotning ma'lum soha va tarmoqlariga portfel investitsiyalari kiritiladi, turli jamg'armalar investitsiyalarga aylanadi. Yirik fond birjalarning indeksleri jahondagi davlatlar, institutsional investorlar va umumiy bozorning kayfiyatini ko'rsatib turadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro moliya bozori, portfel, fond birjalari, innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog'ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo'jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg'armalari.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy infratuzilmani yaxshilash, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlab borish va samarali faoliyat yuritishga erishish hamda inflyatsiyani cheklash, aholini bandlik bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish uchun eng samarali yondashuv bu investitsiyalarni keng jalb etishdir.

Jahon tajribasidan ma'lumki, ochiq investitsiya siyosatini yurutuvchi mamlakatlar xorijiy investitsiyalar orqali o'z iqtisodiy muammolarini hal etishda foydalaniladi. Jumladan Xitoy, Janubiy Koreya hamda shu kabi davlatlarning investitsion siyosati xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilinganligi uchun iqtisodiy muvafaqqiyatlarni qo'lga kiritayotganligini tasdiqlamoqda.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, turli xil risklarni, mavjud shart- sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini rivojlantirishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga, chet el investitsiyalarining kirib kelishini rag'batlantirish yo'li bilan investitsiyalarni, ko'proq, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan¹²³.

Hozirgi vaqtda investitsion mablag'larning manbalari turli xil bo'lib, asosan ikki turga, ichki va tashqi turga bo'linadi. Tashqi investitsion manbag yuqorida ta'kidlangan xorijiy investitsiyalar,

tashqi kredit va qarzlarni qamrab oladi. Ichki investitsion mablag'larga aholi, korxonalar, tijorat banklari va davlatning jamg'armalari asosida tashkil etiladi. Iqtisodiy tarmoqda barcha investitsion turdagi mablag'lari tomonidan asosiy kapital va boshqa sohalarga kiritilgan sarmoyalar iqtisodiyotni rivojlanishiga sabab bo'ladi. Biroq quyida keltirilgan jadvaldagi statistik ma'lumotlardan ta'kidlash joizki, iqtisodiy va moliyaviy tizimni rivojlantirishda xorijiy sarmoyadorlar tomonidan katta hajmdagi investitsiya mablag'lari mamlakatimizga jalb etilishi o'zining ijobiy samarasini beradi. **1-jadval**

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar¹²⁴

Hududlar	Jami investitsiyalar mlrd.so'mda	shu jumladan, moliyalashtirish bo'yicha: (jamiga nisbatan, foizda)						
		Respublika byudjeti	Korxonalar mablag'i	Aholi mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	Tijorat banki kreditlari va boshqa qarzi mablag'lari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1628,3	4,0	37,6	16,1	26,5	0,1	1,2	14,5
Andijon viloyati	3076,7	2,3	22,6	8,9	55,8	2,2	0	8,2
Buxoro viloyati	6821,4	1,4	10,6	6,9	73,6	0,4	0	7,1
Jizzax viloyati	1804,2	2,4	41,7	8,0	40,0	1,1	0	6,8
Qashqadaryo viloyati	3668,2	1,3	17,2	12,5	60,5	0,8	0	7,7
Navoiy viloyati	3459,1	1,5	29,8	8,3	47,0	0	0	13,4
Namangan viloyati	2765,7	2,7	26,8	14,5	31,9	0,6	0,2	23,3
Samarqand viloyati	3619,6	3,5	21,8	8,6	39,8	0,8	0	25,5
Surxondaryo viloyati	2444,2	4,9	21,8	15,5	44,0	1,0	0	12,8
Sirdaryo viloyati	2989,8	1,8	9,9	0,9	81,1	0,8	0	5,5
Toshkent viloyati	5010,2	2,7	39,9	14,3	32,6	0,3	2,1	8,1
Farg'ona viloyati	2750,2	1,2	12,8	17,2	59,9	0,5	0	8,4
Xorazm viloyati	1376,5	1,9	28,6	20,2	34,8	0,4	1,2	12,9
Toshkent shahri	8535,5	5,3	60,5	3,6	21,2	0,1	0	9,3
Respublika bo'yicha	50060,7	3,0	29,4	9,5	46,2	0,6	0,3	11

Investitsion muhitni yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida

asosiy kapitalga bo'lgan investitsiya turlari orasida xorijiy investitsiya respublikaning barcha hududlarida katta hajmga ega bo'lib, 46,2 foizni tashkil etadi (1-jadval).

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida eng yuqori ko'rsatkich kuzatilgan. Bunga sabab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "G'ijduvon" erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 17-noyabrdagi PQ-13- qarori bilan Buxoro viloyati Peshku va Qorovulbozor tumanlari hududida jami 200 gektar qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan bo'sh turgan yer uchastkalarini "G'ijduvon" erkin iqtisodiy zonasi hududiga kiritish va ularni qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilganligi va noruda foydali qazilma ashyolarini qazib olishga yo'naltirilgan¹²⁵ imkoniyat va davlat dasturlari, xorijiy investorlarning e'tiborini tortmoqda. 2019-yil Sirdaryoda o'tkazilgan xalqaro investitsiya forumida keltirib o'tilgan investitsion muhit, va xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilayotgan qulayliklar Xitoy, Rossiya, Italiya, Janubiy Koreya, Qozog'iston, Afg'oniston, Birlashgan Arab Amirligi, Hindiston, Eron va boshqa davlatlarning kompaniyalari vakillari bilan turli sohalarda shaxsiy biznesini olib borish bo'yicha kelishuvlar imzolangan bo'lib, hozirgi kunda Sirdaryo viloyatida 138 ta xorijiy hamkorlar ishtirokidagi korxonalar o'z faoliyatini yuritmoqda. Natijada asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmida xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi mos ravishda 81,1 va 73,6 foizni tashkil etdi.

Respublika byudjeti hisobidan investitsiyalar hajmi qisqardi va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasida investitsiyalar ulushi esa ko'payib, mos ravishda 3.0 va 0.6 foizni tashkil etdi.

Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan asosiy kapitalga investitsiya mablag'lari mamlakatimiz hududiy tarkibining yuqori ko'rsatkichda Toshkent shahri 5.3 foiz ko'rsatkichda, Surxondaryo 4.9 foizni, Qoraqalpog'iston Respublikasi esa 4.0 foizni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan investitsiyalar bo'yicha eng yuqori ulush Toshkent shahrida kuzatilib, bu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning 60,5 foizini tashkil etdi. Shuningdek, Jizzax viloyatida 41,7 foiz va Toshkent viloyatida 39,9 foizni tashkil etdi. Xorazm viloyatida esa asosiy kapitalga bo'lgan investitsiyalar aholi mablag'lari hisobidan eng katta ulushni egallab 20.2 foizni tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, xorijiy investorlar tomonidan kirib kelayotgan investitsion mablag'lari boshqa investitsiya turlariga nisbatan eng katta hajmni tashkil etdi. Bu esa O'zbekiston hududida chet eldan kirib kelayotgan investitsion mablag'larga katta ahamiyat berilayotganligi, investitsion muhitni yaxshilanishi uchun chora-tadbirlar ko'rilayotganligidan dalolatdir. Xorijiy investitsiyalarning hajmini oshirish tufayli mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini mustahkamlashga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy portfel investitsiyalar qimmatli qog'ozlarga kiritiladigan bo'lsa, xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bevosita korxonalar, ularning sho'ba korxonalarini, filiallarini barpo etish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, mavjud bo'lgan korxonalarining modernizatsiya qilish kabi tadbirkorlik faoliyatiga jalb etiladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar investitsiyalarning eng katta ulushini tashkil etadi. 2022- yil yanvar-mart oylarida jami 23,1 trln.so'm asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 34,4 foizni yoki 8,0 trln. so'mga tengdir¹²⁶.

O'zbekistonda bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy omil investitsiyalarni faol jalb etish asnosida xorijiy investitsiyalarning hajmini oshirish uchun investitsion qulay iqtisodiy muhit yaratish lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xorijiy investorlar kengashining birinchi yalpi nutqida: "Qulay investitsiya muhitini yaratish bo'yicha amalga oshirgan islohotlarimiz natijasida so'nggi 5 yilda iqtisodiyotimizga kirib kelgan xorijiy investitsiyalar hajmi 10 baravar oshib, qariyb 40 milliard dollarni tashkil etdi. Biz 10 yil ichida yalpi ichki mahsulot hajmini hozirgidan ikki barobarga oshirishni maqsad qilganmiz. Bunga erishish uchun bizda xohish-iroda ham, imkoniyat ham yetarli. O'z oldimizga qo'ygan bunday yuksak marralar uchun

sarmoyalar hajmini kelgusi 5 yilda 120 milliard dollarga yetkazish, jumladan, kamida 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilishni hisob-kitob qilganmiz.

1-rasm. 2018-2022 yillar davomida O'zbekiston Respublikasiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi¹²⁷

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra xorijiy investitsiya hajmi yildan yilga ko'paygan, biroq 2019-yilda bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 1.0 foizga kamayganligi uchun 2431,4 mlrd so'mni



tashkil etdi.

2022-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi hududlarida xorijiy investitsiya hajmi bir maromda ko'tarilgan bo'lib, o'tgan yili 7965,5 mlrd so'mni tashkil etadi. Bunga sabab 2020-yilda nometal mineral, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish faoliyat turi hamda tog'-kon sanoati, elektr va gaz bilan ta'minlashda xorijiy investitsion mablag'larning katta hajmda jalb qilinganligi, 2021-yilda bunday yuqori o'sishga sement ishlab chiqarishni tashkil etish, elektron gaz hisoblagichlar, kalava, infuziya va inektsion qorishma ko'rinishidagi dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish, oltin mavjud AuinzoAmantoy konlarida qazib chiqarish va qayta ishlashni yo'lga qo'yilganligidir.

Ushbu investitsiyalarni, eng avvalo, sanoat sohalarini modernizatsiya va transformatsiya qilish, ishlab chiqarish, kommunal va transport infratuzilmasini jadal rivojlantirishga yo'naltirish uchun aniq loyihalar va dasturlarimiz bor¹²⁸ deya ta'kidlab o'tganligi mamlakatimiz va uning hududlarida xorijiy investitsiyaning hajmini oshirish uchun investitsion muhit yaratishga potentsialligini yaxshilash uchun islohatlarning amalga oshirilayotganligidan dalolatdir.

Biroq shunga qaramasdan mamlakatimizda investitsion muhitning potentsialligini oshirish bilan bog'liq to'siqlar mavjud bo'lib, bu inflyatsiyaning yuqoriligidir. Yildan-yilga respublikada inflyatsiya darajasining oshishi nafaqat investitsion muhitga, balki iqtisodiyotda ham muammo va dolzarb masalalarni keltirib chiqarishiga sabab bo'lyapti. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatda inflyatsiya darajasini jilovlash, uning eng kam darajaga olib kelishi uchun turli xil yondashuv va chora-tadbirlardan foydalanish lozim. Bundan tashqari investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi yana bir omil bu investorlar uchun yaratilayotgan qulaylik va imkoniyatlar amaliy tadbirg'da yo'l qo'yilayotgan xatova kamchiliklardir.

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- Mamlakatdagi inflyatsiya darajasining yuqoriligiga qarshi zaruriy choralarni ishlab chiqish va amaliy hayotda tadbir etish;
- Investorlarga yanada ko'proq qulayliklar yaratib berish va shu orqali ularning O'zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritishga bo'lgan qiziqishini oshirish;

- Respublikamizga jahon miqyosidagi ilg'or texnologiyalar, nou-hoularni olib kirayotgan investorlarga turli xil imtiyoz hamda preferensiyalarni taqdim etishni takomillashtirish;
- Atruf muhitga zarar yetkazmaydigan, energetikadan tejamli foydalanadigan zamonaviy texnologiyalarga mablag'larni keng jalb etishni rag'batlantirish.

Xulosa qiladigan bo'lsak, xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotning rivojlanish darajasini samarali va tez oshiruvchi omil bo'lib, iqtisodiy muammo va masalalarni bartaraf etishda xorijiy investitsiyalar samarali yondashuvdir. Xorijiy investorlarning mamlakatga katta hajmda kirib kelishida ular uchun yaratilayotgan investitsion qulay muhit ahamiyatlidir. Shuning uchun ham mamlakatimizda xorijiy sarmoyalarning o'rnini oshirish maqsadida qulay investitsion muhitning yaratilishini takomillashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlar olib borilmoqda va buning natijasida xorijiy investorlar tomonidan mamlakatimizga kiritilgan investitsiyalar hajmi oshib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.
2. Qudratov Sh.G'. O'zbekiston Respublikasi fond bozori va uning rivojlanishiga ta'sir qilayotgan asosiy muammolar. Mejdunarodniy nauchniy jurnal № 2 (100), chast 2 «Nauchniy impuls» sentyabr, 2022. S. 688.
3. Sultonov Sh.N. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 5-son.
4. Nurmuhamedov A.A. Nurmuhamedova B.I. Fond bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi. "Skienke and Edukation" Skientifik Journal. / ISSN 2181-0842 March 2023 / Volume 4 Issue 3